

# “O'zkimyosanoat” AJ Komplaens xizmatining 2021 yilning I chorak davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat yakunlari

// 22.04.2021

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/comresult202101>



“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida Komplaens xizmati tomonidan 2021 yilning I chorak davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan faoliyat yakunlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

“O'zkimyosanoat” AJ tomonidan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish va chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, Jamiyat va tizim korxonalarida Komplaens xizmati tashkil etildi va “Yo'l xaritasi” asosida bajariladigan ishlar belgilab olindi. Shu bilan birga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar, ya'ni “Korrupsiyaga qarshi siyosat”, “Axloq kodeksi”, “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati”, “Sovg'a berish va qabul qilish siyosati” kabi 14 ta ichki me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Mavjud xavf-xatarlarni inobatga olgan kimyo sanoati korxonalariga IT texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlab o'tildi.

Yig'ilish kun tartibidagi masala yuzasidan Jamiyat Komplaens xizmati boshlig'i Sh.Sag'dullaevning joriy yilning I-choragi davomida ushbu sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot taqdim etdi. Ma'lum

bo'lishicha tasdiqlangan huquqiy-me'yoriy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgan ishlar va axborot kanallari orqali kelgan ma'lumotlar tahlili natijasida "O'zkimyosanoat" AJ korrupsiogen holatlar uchta yo'nalishda qayd etilayotganligini kuzatish mumin:

1. Fuqarolarni ishga olish va mehnat munosabatlari sohasida;
2. Xaridlarni tashkil etish sohasida;
3. Korxonalaridagi tovar-moddiy boyliklarini va tayyor mahsulotlarni saqlash va xaridorga yuklash sohasida.

Ta'kidlash lozimki, 2021 yil 1 aprel holtiga jismoniy va yuridik shaxslardan kimyo sanoati korxonalariga kelayotgan murojaatlarning asosiy qismida (54% yoki 580 ta murojaat) kimyo sanoati korxonalariga ishga olish, mehnat munosabatlaridagi muammolar va korrupsiogen omillar mavjudligi ma'lum qilingan.

Bundan tashqari mehnat munosabatlarida Manfaatlarni to'qnashuvi mavjud bo'lgan holatlar bartaraf etildi.

Xaridlarni tashkil etish sohasi o'rganilishi natijasida zarur texnik talablar (ish staji va xodimlar soni) "O'zkimyosanoat" AJning talablariga mos kelmasligi sababli 370,0 mln. so'mlik shartnoma bekor qilindi.

Jamiyat va tizim korxonalarida xodimlarda korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik munosabatni shakllantirish, ularni huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida komplaens xodimlari va huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida 30 ta tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirildi.

Yig'ilish so'nggida "O'zkimyosanoat" AJ va tizim korxonalarida fuqarolarni ishga olish jarayoni ochiq va shaffof bo'lishini ta'minlash maqsadida bir oy muddatda yangi tartib ishlab chiqish, kimyo sanoati korxonalarida mahsulotlarni saqlash va yuklash bo'yicha ochiq, shaffof bo'lishini va nazoratni ta'minlaydigan zamonaviy talablarga mos ravishda tizim yaratish bo'yicha qaror qabul qilindi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**